




Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



ARAB VA TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA BALOG'AT ILMINING O'RNI

*Salimaxon Rustamiy**O'qituvchi,**Toshkent Oriental universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: filologiya, balog'at ilmi, badiiy san'atlar, lafziy san'atlar, saj', tajnis, tarse'.

Annotatsiya: Maqolada balog'at ilmining saj', tajnis, tarse', tashbeh kabi asosiy badiiy san'atlari haqida so'z boradi, ular «Devonu lug'ot-t-turk», «Farhod va Shirin», «Fununu-l-balog'a» kabi asarlar asosida tahlil qilingan.

THE ROLE OF THE SCIENCE OF BALAGY IN THE LITERATURE OF THE ARAB AND TURKIC PEOPLES

*Salimahon Rustami**Teacher,**Tashkent Oriental University**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: philology, science of balagha, literary arts, phrase, enunciative arts, rhymed phrase, tajnis, tarse', tavze'.

Abstract: The article deals literary arts as saj' (rhymed prose), tadjnis (paranomasia), tarse' (absolutely rhymed words of the hemistich in a distich) and tashbeh (simile) which are the main figures of balagha are analyzed on the basis of such works as «Divanu lug'at-t-turk», «Farhod and Shirin», «Fununu-l-balāga».

РОЛЬ НАУКИ БАЛАГАТ В ЛИТЕРАТУРЕ АРАБСКОГО И ТЮРКСКОГО НАРОДОВ

*Салимахон Рустами**Преподаватель,**Ташкентский Oriental университет**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:
филология, наука о баяге,
словесность, словосочетание,
искусство произношения,
рифмованное словосочетание,
тажнис, тарсе', тавзе'.

Аннотация: В статье анализируются такие литературные искусства, как садж (рифмованная проза), таджнис (параномазия), тарсе (абсолютно рифмованные слова полустишия в двустишии) и ташбех (сравнение), являющиеся основными фигурами науки баяга, на основе таких произведений как «Дивану лугатит турк», «Фархад и Ширин», «Фунуну-л-баяга».

KIRISH

Sharqda, xususan arab tilida balog'at ilmi nahv (sintaksis), sarf (morfologiya) va lug'atshunoslikdan so'ng muhim mavqega ega bo'lgan ilmlardan hisoblangani bois qadimdan arab tilshunoslari, adabiyotshunoslarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Hozirgi kunda o'zbek sharqshunoslari mazkur ilmlar doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqdalar [1; 4; 6; 7; 11; 12; 13; 14; 15; 17].

O'rta asr olimlari bu limning rivojlanishi, o'zlashtirilishiga katta e'tibor berganlar va unga bag'ishlab bir qancha asarlar yaratganlar. «Balog'at ilmi»ning tarkibiga kiruvchi ayrim qismlar bo'yicha nazariy fikrlar, dastlab Abu Usmon Johizning «Al-bayon va-t-tabayin», «I'jazu-l-Qur'on», Abu Ubaydaning «Majozu-l-Qur'on» asarlarida, Ja'far ibn Yahyo, Sahl ibn Horun, Abulabbos Mubarrad, Qudama ibn Ja'far, Abdulloh ibn Mu'tazz, Bashshar ibn Burd, Muslim ibn Valid, Abu Tammam, Hilol Askariy, ibn Rashiq kabi olim va shoirlar asarlarida qayd etilgan [2].

D.F. Zagidullina fors tilida yozilgan balog'atga doir asarlardan Volgabo'yi va Uralbo'yi hududlarida o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgani, turk-tatar adabiyotining nazariy asoslari shu asarlarda ekani, tatarlar XX asr boshlarigacha badi'ga oid asarlarda qo'llangan istilohlar tizimidan foydalanganlari, ularning adabiyot nazariyasiga oid dastlabki kitoblarida fors nazariyotchilari ishlab chiqqan badiiy san'atlar tizimi qo'llanilganini yozadi [19, 50]. Xuddi shu fikrlarni MDH hududida yashovchi barcha turkiy xalqlar adabiyoti, jumladan, o'zbek adabiyotiga nisbatan ham aytish mumkin.

TADQIQOTNING USULLARI

Maqolada sharq xalqlari mumtoz adabiyotida balog'at ilmining o'rni va ahamiyatini yoritib berish maqsad qilingan.

Bu maqsadga erishish uchun Atoulloh Husayniyning «Badoyi'u-s-sanoyi'» asari xususiyatlarini aniqlash va turkiy adabiyotda faol qo'llangan badiiy san'atni ko'rsatish kabi vazifalar amalga oshirilgan.

Maqolada ilmiy tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, komponent tahlil kabi usullardan foydalangan holda balog'at ilmining nazariy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirishda o'rta asr olimlarining munosib xizmatlari dalillandi, o'rta asrlarda balog'at ilmining adab ilmlari tizimidagi o'rni ko'rsatish hamda uning arab, fors, turkiy xalqlar tili va adabiyotining nazariy hamda amaliy rivojidagi o'rni va ahamiyati yoritildi, ularning til estetikasi va ekspressiyasini yaratishdagi muhim vazifasi asoslandi.

NATIJALAR

Balog'at ilmiga doir asarlarning arab, fors va turkiy xalqlar ziyolilari orasida keng tarqalishi ularning o'z tillarida balog'atga bag'ishlangan asarlar yaratilishlariga asos bo'ldi. Bular qatoriga Atoulloh Husayniyning «Badoyi'u-s-sanoyi'», Umar Rodiyoniyning «Tarjimonu-l-balog'a», Shayx Ahmad Taroziyning «Fununu-l-balog'a» asarlarini kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, bu

asarlarning har biri tarkib va tartib jihatdan o'ziga xos bo'lib, mualliflar, albatta, Sakkokiy asariga qayta-qayta murojaat qiladilar, undagi ma'lumotlarga nisbatan ijodiy munosabatda bo'ladilar.

Atoulloh Husayniyning «Badoyi'u-s-sanoyi'» asari xususiyatlari

«Balog'at» IX asrda arab filologiyasiga doir fanlar qatorida vujudga kelgan va XII asrda takomiliga yetgan.

Birinchi bo'lib balog'at ilmiga oid mavjud nazariyalarni tizimlashtirgan olim Abdulqohir Jurjoniydur. Bu borada u «Asroru-l-balog'a» asarini yaratdi [5].

Abdulqohir Jurjoniydur so'ng Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy o'zining «Miftohu-l-ulum» asarida o'zigacha bayon etilgan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqdi va boblarni tartibga keltirdi.

Sakkokiy o'z asarining «Balog'at ilmi»ga doir uchinchi bo'limida dastlab «fasohat» va «balog'at» tushunchalarini tartib bilan izohlab beradi. So'ngra ungacha bo'lgan asarlarda tarqoq holda bo'lgan va balog'at ilmining asosini tashkil qiluvchi bo'limlarni tartib bilan keltiradi va ularni «ilmu-l-ma'oniyy», «ilmu-l-bayon» va «ilmu-l-badi'» deb nomlaydi.

Ma'lumki, balog'at ilmimi tarkib va tartib jihatdan bir asarga jamlanib, ilmiy jihatdan yetuk darajaga kelishi, dastlab Jurjoniyy, so'ngra Sakkokiyning benazir mehnatlari samarasidir. Sakkokiydur keyingi olimlarning barchasi uning qoidalarga asoslanganlar.

Shunday asarlar qatoriga «Miftohu-l-ulum»ning balog'at ilmiga doir qismiga damashqlik xatib Jaloluddin Muhammad ibn Muhammad Abdurrahmon Qazviniy tomonidan (v.e. 739/1339) yozilgan «Talxisu-l-Miftoh» asarini, Mas'ud ibn Umar Taftazoniy (v. e. 792/1390)ning «Sharxu Talxisi-l-Miftah» deb nomlanuvchi sharhini kiritish joizdir.

XV-XVI asrlarda yashab o'tgan Atoulloh Husayniyning asari bo'lmish «Badoyi'u-s-sanoyi'»da balog'at san'atlari ilgari uchramagan o'ziga xos uslubda tasniflangan.

Asarda bir qancha badiiy vositalar xususida bahs yuritilgan. Bu bahsni ikki turga bo'lish mumkin. Birinchisi, ixtilofsiz, ya'ni biror badiiy vositaga berilayotgan ta'rif yoki tasnif o'zidan oldingilariga mos keladi. Masalan, badiiy vositalardan biri saj' haqida Atoulloh Husayniy: «Arabiyat ahlining bir toifasi nazdida nasrg'a xosdur va bu toifa saj'ni nasr fosilalarining oxirg'i harfta muvofiqlig'idin iborat deb bilypturlar» deydi va Sakkokiyning «Miftohu-l-ulum» asaridan iqtibos keltirgan holda fikrini davom ettiradi: «Miftoh» sohibi, saj', ya'ni nasr bo'laklari oxiridag'i so'zlar she'rdag'i qofiya kibidur deptur. Ravshan va mashhuri ham aning ushbu qavlidur» [3, 62]. Ikkinchisi, arab va ajam olimlari o'rtasida ixtilofli bo'lganlari. Masalan, Atoulloh Husayniy ma'naviy go'zalliklarni ikki turga bo'ladi va birinchi turni arab va ajam fusahosi sanoyi'ga kiritishini, ikkinchi turni ajam olimlari sanoyi' turkumiga, arab olimlarning barchasi nutqning zotiy go'zalliklaridan deb hisoblab, uning bahsini ma'oniyy va bayon ilmining vazifasiga kiritishlarini ta'kidlaydi. Olim bunday ixtilofga, uning bayoni badi' ilmining vazifasi, chunki u oriziy go'zalliklardandir, deb o'z munosabatini bildiradi [3, 122].

Shubhasiz, Husayniy ko'p hollarda, masalan, badi' ilmi haqidagi bahsda faqat Sakkokiy emas, balki boshqa olimlarning ham asarlariga murojaat qiladi. Masalan, ishtiyoq haqida, uni Ibn Asir, «Tibyon» sohibi va Rashid-i Vatvot kabi ba'zilar tajnis turlari qatoriga kiritmaydilar, ammo «Miftoh» va «Izoh» sohibi kabilar tajnisga tobe tarmoq deb hisoblaydilar [3, 50], degan fikrni bildiradi.

XV asrda yashagan Shayx Ahmad Taroziy badiiy san'atlarga bag'ishlangan «Fununu-l-balog'a» [18] asarida o'zidan avvalgi olimlar bilan bahs yuritmasa-da, badiiy vositalar ta'rifi va ularning bir qanchasiga keltirilgan arabcha misollar uning arab tilida yozilgan balog'atga oid asarlarga ham tayanganini ko'rsatadi. Asarda keltirilgan arabcha misollar Qur'oni Karim va hadislardan bo'lib, aynan shularning balog'atga oid boshqa asarlarda, ayrimlarning «Miftohu-l-ulum»da ham uchrashi bu fikrni tasdiqlaydi. Bu asarda ham «Badoyi'u-s-sanoyi'»dagi kabi san'atlar ta'rifi va tasnifida «Miftohu-l-ulum»dan qisman bo'lsa-da, farq qiluvchi jihatlarning borligi balog'at ilmiga uni o'zlashtirgan xalqlar tomonidan ijodiy yondashuv bo'lganini ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodida badiiy san'atlar

Balog'at ilmining nazariy asoslari ishlangunga qadar unda o'z aksini topgan va bayon etilgan so'z san'atlari, ma'no ifodalashning turli unsur va usullarini qo'llash xalq og'zaki ijodida shakllanib, rivojlanib bordi. Inson o'z nutqiga ijodiy munosabatda bo'lib, uni sayqallashdan to'xtamadi, natijada go'zal shaklga ega bo'lgan serma'no ijod namunalari yaratildi. Chunki insonning tabiatan go'zallikka intilishi uni ijodga undaydi. Natijada hayotning boshqa sohalarida bo'lgani kabi nutqda ham fikrni ma'noga e'tibor bergan holda go'zal shaklda ifodalash ehtiyoji tug'iladi. Bu ehtiyoj tilda mavjud bo'lgan vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, A.Rustamov tilga yaratilgan go'zallik sifatida baho berib, quyidagicha fikr yuritadi: «Til bir jihatdan tabiat va insondagi go'zallikni aks ettiruvchi vosita bo'lsa, ikkinchi jihatdan unda go'zallikni vujudga keltiruvchi javharlar ham mavjud... Biz tilga go'zallik javhari sifatida nazar soladigan bo'lsak, uning kishini hayratlantiradigan darajada yetukligi bor... Tilning mana shu yetukligi uning go'zalligini va undan foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchining yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta'minlaydi» [16]. Demak, tildagi go'zallikni vujudga keltiruvchi javhar uning estetik vazifasi omilidir.

Xalq og'zaki ijodi namunalari, folklor janrlari, xususan, ashula, doston, bayt, to'rtlik, matal, aforizmlar, yalla va allalar, laparlar, marosim qo'shiqlari, yig'lashlar, aytishuv, tortishuv, bahslar, topishmoq, xususan maqollar mazmunan va shaklan xalq ongida, xususan uning qadriyatlarini negizida shakllanib, xalqqa yaqin bo'lgani uchun kishini hayoti davomida duch keladigan turli-tuman hodisalarga oqilona va bosiq munosabatda bo'lish, yovuzlikdan saqlanish va ezgulik sari intilishga chorlagan. Bu hol xalq og'zaki ijodi mahsulining hayotiyiligini ta'minlovchi omillarning asosiysidir.

Ammo xalq maqollari, matallari, she'r va qo'shiqlarining hayotiyiligi va mashhurligini ta'minlovchi yana muhim bir omil bor. Bu ularda nutqiy balog'at, g'arbcha qilib aytganda estetik, bizning til bilan ta'bir qilganda chechanlik darajasining yuksakligidir.

Sharq xalq og'zaki ijodida shoirlar o'z she'rlarida turli badiiy vositalardan keng foydalanganlar. Ana shu davrdanoq dastlabki adabiy til va badiiy tasvir qoidalari va usullari shakllana boshlagan.

Nutqiy ifodalarning ma'nolari va sifati barcha xalqlar uchun umumiy bo'lsa, ma'nolarni ta'bir qilish usullari mentaldir. Bu bir tomondan, xalqlarning tarixi, urf-odati, madaniyati va ma'naviyati kabilar bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, har bir xalq tilida mavjud bo'lgan grammatik xususiyatlar va tilning badiiy imkoniyatlaridagi o'ziga xoslikka bog'liq.

Masalan, arab xalq og'zaki ijodida:

Ийжоз, сажъ, тажнис: *اليوم سلام و غذا كلام* (сўзма-сўз: бугун салом, эртага калом). Аввало барча мақоллар, жумладан, мазкур мисол ҳам ийжозда ва сажъда ёзилган. Ийжоз санъати араб балоғат илмининг маъоний бўлимида ўрганилади ва у матнда оз сўз билан кўп маъно ва теран мазмуннинг ифодаланишида намоён бўлади. Келтирилган бештагина сўздан иборат мисолда саломлашиш ва унинг хосиятлари, яъни яхши тилаклар билан қарши олиш одамларнинг танишиши ва дўстлашиши дебочаси экани ва бугунги айтилган қисқагина «ассалому алайкум» сўзларининг ўзаро танишувга, бўлғуси суҳбатларга замин яратиб бериши, шу тариқа инсонлар бир-бирлари билан дўст тутиниб, жамият аҳли орасида ижобий муносабатлар ривожланиб боришига ишора қилинган.

Мақолда сажъ санъатининг мавжудлиги уларнинг насрда ёзилгани ва унда шеърдаги қофия каби ўзаро лафздош сўзларнинг борлиги билан изоҳланади. Лафздошликда кўпинча тажнис санъати қўлланади. Юқоридаги мисолда *سلام* (салом) ва *كلام* (калом) сўзлари ўзаро лоҳиқ-музориъ тажнис орқали мутаवзий сажъни ҳосил қилган. Сажъ ва тажнис араб балоғат илмида бадий санъатларнинг лафзий турига мансубдир.

Ийжоз, сажъ, ташбих, тажнис: *شعاع الشمس لا يُخفى و نور الحق لا يُطفى* (сўзма-сўз: куёш шуъласи тўсилмайди, ҳақиқат нури сўнмайди). Бу мақолда ҳам ийжоз бор, яъни куёш ёруғини беркитиб бўлмаганидек, ҳақиқат зиёсини ҳам сўндириб бўлмаслигини эслатиш орқали ҳақиқатни яширишга қанчалик ҳаракат қилинмасин, у ўзини ошкор қилади, шунинг учун унга қарши бориш бефойда экани, ҳамиша ҳақиқат билан яшаш лозимлиги

уктирилади. Бу инсон ҳаёти мазмунини белгилаб берувчи дастурул амаллардан биридир. Бу ерда ҳақиқатнинг қуёш нурига ўшатирилгани ташбихдир. Мақолдаги لا يُطْفَى – لا يُخْفَى сўзлари ўзаро мутавозий сажъ ҳосил қилган. Сажъни ҳосил қилган тажнис аввалги мақолдаги каби лоҳиқ-музориъдир.

Ийжоз, сажъ: من كثرة الملاحين غرقت السفينة (сўзма-сўз: денгизчининг кўплигидан кема ғарк бўлар). Мақолда ملاحين – سفينة сўзлари мутарраф сажъ ҳосил қилган.

Ийжоз, сажъ, тазод: من الشوكة تخرج الوردة (сўзма-сўз: тикандан атиргул чиқади). Бу мақолдаги شوكة ва وردة сўзларида ҳам мутавозин сажъ ва тазодни кўрамаиз. Мазкур мақолларнинг бирида ёлғончиликнинг ортиқча ташвиш келтириши, бошқасида сабрнинг хайрли натижалар олиб келиши ийжоз санъати орқали ихчам жумлада ўз ифодасини топган.

Ийжоз, сажъ, тазод: الشرُّ قليلُهُ كثيرٌ (ёмонликнинг ози ҳам кўп). Юқоридаги мақолда زيد маъноли قليل (оз) ва كثير (кўп) сўзлари ҳам тазод, ҳам мутавозин сажъ ҳосил қилган.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodidan misollar:

«Ашыч айур түбүм алтун, қамыч айур мэн қайдаман» (қозон айтур: тубим олтин, чўмич айтар: мэн қайдаман) [7, 86] масалидаги «ашыч», «қамыч» сўзлари ўзаро тажнисли сажъ, биринчи фосоладаги «ашыч», «айур», «алтун» ва иккинчи фосоладаги «қамыч», «қайдаман» сўзлари тавзиъ, «айур» сўзлари тақрир санъатларини ҳосил қилган.

Юқорида келтирилган мисол ўзига таниш бўлган ва кимлигини яхши билган кимса олдида мақтанган кишига қарата айтилади. Бу ерда фикр оз сўз билан кўп маъно ифодалаш орқали амалга оширилган, яъни унда ийжоз санъати мавжуд. Ийжоз санъати барча масал, мақолларга хосдир.

«Агылда ўглақ тугса, арықда ўты ўнәр» (молхонада бузоқ туғилса, ариқда ўти чиқади) [7, 96] мисолида ийжоз санъати мақолнинг заминида ётган «ризқ учун кўп қайғуриб, машаққат чекиш керак эмас» деган чуқур маънонинг ифодаланишида кўринса, ундаги «агылда», «арықда» сўзлари ўзаро сажъ ҳосил қилган.

«Алын арслан тутар, кўчин уйуқ тутмас» (ҳийла билан арслон тутилар, куч билан узоқ тутилмас) [7, 110], «кўч алдын кирсә, тёрү тўңлүктән чықар» (Зулм эшикдан кирса, инсоф туйнукдан чиқар) [8, 25], «тылын тўгмишини, тышын йазмас» (тил билан боғланган тиш билан ечилмас) [8, 28] мақоллари «тутар» ва «тутмас», «кирсә» ва «чықар», «тўгмиш» ва «йазмас» сўзлари воситасида тибоқ санъати қўллангани билан ажралиб туради.

«Бир қарға бирла қиш келмас» [8, 33] мақолида «бир» ва «бирла» ўзакдош сўзлар иштиқоқ ҳосил қилган.

«Ула бўлса йўл азмас, билик бўлса сўз йазмас» (белги бўлса, одам йўлдан адашмайди, ақли бўлса, сўзда янглишмайди) [7, 118] мақолида «азмас» ва «йазмас» сўзларида тажнис, «бўлса» сўзларида тақрир санъати бор.

Turkiy adabiyotda badiiy san'atlar

Balog'at ilmining rivoji sharq xalqlari, jumladan fors va turkiy xalqlar ijodiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi va o'rta asrlarda bu ilm qoidalariga asoslanib, uning san'atlarini mohirona qo'llagan holda yaratilgan ko'plab adabiy asarlar yozildi.

Bu asarlarda zukko adiblar so'zdan foydalanishda uni suiste'mol qilmaslik uchun o'ta ehtiyotkor munosabatda bo'lganlar va so'zni go'zal tarzda iste'foda etish orqali uni san'at darajasiga ko'targanlar. Bu san'at orali insonlarga ilmu ma'rifatni go'zal tarzda taqdim eta olganlar. O'zlari yaratgan asarlarning ham shaklan, ham mazmunan go'zal bo'lishini ta'minlash maqsadini amalga oshirish adiblardan balog'at ilmini chuqur o'zlashtirishni talab qilgan.

Arab va fors tillaridagi kabi turkiyda ijod qilgan mumtoz adabiyot namoyondalarining badiiy asarlari orqali ularning ham balog'at ilmini juda yaxshi o'zlashtirganliklarini ko'ramiz. Bu asarlarda balog'at ilmining tarkibini tashkil qiluvchi til qoidalariga qat'iy rioya qilish bilan birga badiiy san'atlardan ham ustalik bilan foydalanilgan. Chunki balog'at ilmi asarda badiiy vositalarning bir-biriga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini, so'zlarni takrorlash, ortiqcha so'z va gap bo'laklarini tushirib qoldirish hisobiga mo'jazlikka erishishni, oz so'z bilan ko'p ma'no

ifodalashni, salbiy munosabatlarni qo'pol so'zlar bilan ifodalamaslikni talab qiladi. Badiiy asarda haqiqat ham, uning ifoda vositalari ham badiiy tus oladi [16, 4-5]. Bu borada Alisher Navoiyning ham nasrda, ham nazmda yozilgan deyarli barcha asarlarini sanab o'tish mumkin. Jumladan, uning «Xamsa» asaridan saj' san'atiga misolni keltirish mumkin:

«Saltanat sipehrining mehri rahshandasi va xilofat tojining la'li duraxshandasi jahonbonlig' jismining ruhi nozanini va kishvaristonlig' aynining mardumaki jahonbini olam xalqining rafi'i va zamon ahlining badi'i, ya'ni sulton Badiuzzamon Bahodir madhida: xallallohu mulkahu va abbada davlatahu» [10, 169]. Ushbu sarlavhada «saltanat» – «xilofat», «nozanin» – «jahonbin», «rafi'» – «badi'» so'zlari mutavoziy saj'ni; «mehri» – «la'li», «jism» – «ayn», «olam» – «zamon», «xalq» – «ahl» so'zlari mutavozin saj'ni; «raxshanda» – «duraxshanda», «jahonbon» – «kishvariston» so'zlari mutarraf saj'ni hosil qilgan.

Yana bir misol: «So'z ta'rifida bir necha so'z surmak va so'z ahlig'a andin necha so'z tegurmak va koinotqa taqaddumining sifoti, mumkinotqa taaxxurining isboti va oning pardasidin boshqa ma'niy bikri jilvadin oriy va ko'ngul kunjida mutavoriy erkonining izhori» [10, 467]. Bu misolda «koinot» – «mumkinot», «sifot» – «isbot» so'zlari mutavoziy saj'ni; «sur» – «tugur», «oriy» – «mutavoriy» so'zlari mutarraf saj'ni; «taqaddum» – «taaxxur» so'zlari mutavozin saj'ni hosil qiladi.

Mumtoz asarlarda tajnis, majoz, tashbeh, istiora kabi san'atlar ham juda mohirona qo'llanilgan. Shayx Ahmad Taroziy «Fununu-l-balog'a» asarida turkiyda Mavlono Lutfiy, Mavlono Sakkokiy, Atoiy, Xo'jandiy, Amir Sayyid Nasimiy, forsiyda Xoja Xofiz Sheroziy, Xoja Salmon, Xoja Kamol, Muizziy, Nosir, Sharaf Yazdiy, Firdavsiydan qator misollar keltiradi [18].

Shulardan tajnis sanati quyidagi baytlarda qo'llangan:

Soldi kuygan ko'nglima ul englari gulnori nor.

Bo'lmadi hargiz manga ul dilbari ayyor yor.

Bu misolda «gulnori» bilan «nor» hamda «ayyor» bilan «yor» so'zlari mukarrar tajnisni hosil qilgan.

Bizga bor javrung jafodin yaxshiroq.

Qilmag'il, ey turk, bu odatni tark.

Bu baytdagi «turk» bilan «tark» so'zlari orqali noqis tajnis vujudga kelgan.

Tarse' san'atiga misol:

Ey munavvar, ba tu nujumi jalol,

Ey muqarrar, ba tu rusumi kamol.

Tashbehga misollar:

Quyidagi baytda o'xshatish shart qo'yish orqali bo'lgani uchun mu'allaq tashbehga misol bo'ladi:

Yuzungga o'xshag'ay bo'ston, gulima ul mahi tobon.

Agar xud bo'lsa gulda jon, oyda bo'lmasa nuqson.

Quyidagi misolda avvalgi o'xshatishdan qaytilgan va bu bilan tafze' tashbeh san'ati qo'llangan:

Jamolingdur sening badri duraxshon.

G'alat qildim, erur xurshidi tobon.

Maqlubotga misollar:

Chaman ichinda qilur raqs sarv, har dam urar –

Chinor qarsu o'qur andalib savtu g'azal.

Bu misolda «raqs» bilan «qars» so'zlari ba'z maqlub (qisman o'rin almashish) san'atini hosil qilgan.

Ey yuzung ganji malohattur desam,

Ne uchun, ey mah, qilursan mayli jang.

Ushbu baytdagi «ganj» bilan «jang» so'zlari arab yozuvida «gnj» va «jng» harflariga mos ketma-ketlikda yozilgani sababli unda kull maqlub (to'liq almashish) san'ati qo'llangan.

XULOSA

Balogʻat ilmi fan sifatida oʻrta asrlarda araf filologiyasi tarkibida shakllangan va rivojlangan. Arab, fors va turkiy tillarda balogʻat ilmi nazariyasiga doir asrlar yozilgan.

Mumtoz badiiy adabiyot namunalari dan goʻzal sanʼatlar va ularga xos satrlarni behisob keltirish mumkin. Bunday satrlarni jamlagan asarlar asrlar osha oʻzining maʼnan teran va shaklan maftunkor jihati bilan ilm va sanʼat ahli eʼtiborida boʻlib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Arifdjanov, Z. (2020). Functional equivalents of the simple verb خواستن [xāstan] and their formal invariants. *The Light of Islam*, 2020(1), 163-170.
2. Hamid, Avniy. (1953). *Al-minhaj al-vadi' li-l-balagʻa*. Dar al-kuttab al-'arabiy.
3. Хусайний, Атоуллоҳ (1981). *Бадойиъу-с-санойиъ*. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. Адабиёт ва санъат.
4. Islamov, Z. (2020). Codicological Analysis of Manuscripts of «Mukaddamatu-l-Adab» of Mahmud Zamakhshari in the Funds of the World. *The Light of Islam*, 2020(2), 30-36.
5. Jurjaniy, Abd al-Qohir. (2002). *Asraru-l-balagʻa*. Bayrut-Lubnan.
6. Lutfullayeva, D. E. (2016). The Role Of Associative Experimental Method In The Study Of Human Linguistic Memory. *Современные проблемы тюркологии: язык-литература-культура*, 452-457.
7. Lutfullayeva, D., Nasirova, N., Sayidirahimova, N., Nizomova, F., & Shoaliyeva, N. (2020). Pragmatic features of official texts and documents of the uzbek language. *Anglisticum*. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(7), 27-34.
8. Муталлибов С.М. (1960). Маҳмуд Кошғарий. *Туркий сўзлар девони /Девону луғотит турк/ Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. -Т. Т.1.*
9. Муталлибов С.М. (1961). Маҳмуд Кошғарий. *Туркий сўзлар девони /Девону луғотит турк/ Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. -Т. Т.2.*
10. Навоий, Алишер (1960). *Хамса*. Нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. Фан.
11. Nasirova, M. A. (2019). The contribution of the outstanding Mavarannahrian scholar Mahmud Az-Zamakhshari into the world linguistics. *Theoretical & Applied Science*, (10), 755-759.
12. Nig'monov Mr, A. (2020). Rhythmic-syntactic parallelisms in old turkic poetry (by example of extract from «Devon lugati-t-turk»). *The Light of Islam*, 2020(1), 185-191.
13. Nizamova, F. (2020). Study of Amir Husrow Dehlavi s rubais. *The Light of Islam*, 2020(3), 150-159.
14. Rustamiy, S. (2016). «Esasu-l-belaga» ve «Divan-u lugat-it-türk» eserlerinin dil bilimi ve belagat bilimiyle ilgili yönleri. *Electronic Turkish Studies*, 11(20), 503-522.
15. Rustamiy, S., Nasirova, M., & Sagdullaeva D. (2020) Scientific and theoretical content of the science of balāğat. *Journal of Critical Reviews*, 7 (6), 132-137.
16. Рустамов, А. (1979). *Навоийнинг бадий маҳорати*. Адабиёт ва санъат.
17. Shoaliyeva, N. (2018) «Human and mystical(irfan) perfection in Sohrab Sepehri's poetry». *The Light of Islam*, 2018(4), 29-38.
18. Гарозий, Аҳмад. (1996). *Фунуну-л-балога*. А.Ҳайитметов нашрга тайёрлаган. Ҳазина.
19. Загидуллина Д.Ф. (2008). Влияние средневековой арабской и персидской науки балаягъа на татарское литературоведение // *Учен. Зап. Казан. Ун-та. Сер. Гуманит. Науки*. Т. 150, Кн. 8. – Казань. – С. 48-54.